

## **Yil boshida osh dasturxoni**

Ajdodlarimiz qadim-qadimdan xayrli ish oldidan ehson dasturxoni yozish udumiga amal qilib kelishgan. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan ushbu an'anani davom ettirgan holda 2021- yilning 13-yanvar kuni yangi yil hamda an'anaviy o'qishning boshlanishiga shukrona tariqasida qishki ta'tildan qaytgan institutimiz talabalar turar joyida yashovchi talabalarga osh dasturxoni yozildi.



Mazkur xayrli ish institutimiz rektori O'.Umurzakov tashabbusi bilan tashkil etildi. Ertalabdan barcha talabalar turar joylari hovlisiga doshqozonlar o'rnatilib mohir oshpazlar tomonidan osh pishirish uchun harakatlar boshlab yuborildi. Bu jarayonda talabalar turar joyida yashovchi talabalarimiz ham faol ishtirok etishib oshpazlarga qo'lidan kelgancha o'z yordamlarini ayashmadi.



Tadbir jarayonida institut rektori 5 muhim tashabbusning 5 tashabbusi doirasida talabalar turar joyida tashkil etilgan tikuv sexiga ham tashrif buyurdi. Mazkur sexda yaratilgan shart-sharoit, talaba-qizlarimiz tomonidan tayyorlangan kiyimlarlarni atroflicha ko'zdan kechirib qo'li gul tikuvchi qizlarimizga o'z minnatdorchiligini izhor etdi. Shuningdek, mazkur tadbirda institut rahbariyati hamda fakulitet dekanlari ham faol ishtirok etishib osh pishishi jarayonida talabalar bilan qiziqarli suhbat olib borishdi hamda talabalarning yashash sharoitlari bilan yaqindan tanishib, muammo va takliflari bo'yicha fikrlashdilar. Osh tadbiri juda qiziqarli va maroqli kechdi. Bu tadbirdan institut talabalar turar joyida istiqomat qiladigan talabalar juda xursand bo'lishib, institut rahbariyatiga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.



**Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat  
bo'limi boshlig'i Z.Haydarov axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati**